

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

“Tasdiqlayman”  
Jizzax davlat pedagogika universiteti  
rektori prof. Sh. Sharipov

2022 yil



“BARQAROR TARAQQIYOT VA YUKSALISH JARAYONLARI”  
FANINING O'QUV DASTURI

**Bilim sohasi:** 100000 – Ta'lim

**Ta'lim sohasi:** 110000 – Ta'lim

**Ta'lim yo'nalishi:** 60112100 – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi

JIZZAX – 2022

Fan/modul kodi 351BTVYuJ10		O'quv yili 2022-2023	Semestr 4	ECTS - Kreditlar 4
Fan/modul turi Tanlov			Ta'lim tili O'ZBEK	Haftadagi dars soatlari 4
1.	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>
	Barqaror taraqqiyot va yuksalish jarayonlari	50 Ma'ruza 24 Seminar 26	70	120
2.	<p align="center"><b>I. Barqaror taraqqiyot va yuksalish jarayonlari fanining mazmuni.</b></p> <p align="center"><b>O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni</b></p> <p>Ushbu fan barqaror taraqqiyot va yuksalish jarayonlari to'grisidagi nazariy masalalarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, fanda jamiyatni ekologiyalashtirishning ahamiyati va o'rni ochib beriladi. Ushbu fan bo'lajak pedagoglarda tabiiy-ekologik voqeyiliklarga doir bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va olgan bilim va ko'nikmalarini amaliyotga qo'llay olish masalalarini ham yoritadi.</p> <p><b>Fanni o'qitishdan maqsad</b> - talabalarga barqaror taraqqiyot va yuksalish jarayonlari haqida muayyan bilim va tushunchalar berish, barqaror taraqqiyot va yuksalish jarayonlari mazmun-mohiyatini zamonaviy o'zgarishlar, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar bilan bog'lab o'rgatishdan iborat.</p> <p><b>Fanning vazifasi</b> – Barqaror taraqqiyotni ta'minlash tamoyillari, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy barqarorlikning asosiy jihatlari, ta'lim va tarbiya tizimining sifat va samaradorligi barqaror taraqqiyot va yuksalishning muhim omili ekanligigiga oid bilimlardan amaliyotda foydalanish malakalarini shakllantirishdan iborat.</p> <p align="center"><b>II. ASOSIY NAZARIY QISM (MA'RUZA MASHG'ULOTLARI)</b></p> <p align="center"><b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>1-mavzu. Barqaror taraqqiyot va yuksalish jarayonlari o'quv kursini o'qitishning ahamiyati (2 soat)</b></p> <p>Barqaror taraqqiyot va yuksalish jarayonlari o'quv kursining mazmuni va tadqiqot predmeti. Barqaror taraqqiyot va yuksalish jarayonlari o'quv kursining maqsad va vazifalari. Barqaror taraqqiyot va yuksalish jarayonlari fanining nazariy masalalari va mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar bilan chambarchas bog'liqligi. Barqaror taraqqiyot va yuksalish jarayonlari kursining ijtimoiy fanlar tizimidagi o'rni. Barqaror taraqqiyot va yuksalish jarayonlari o'quv kursini o'qitishning nazariy va amaliy ahamiyati. Barqaror taraqqiyot tushunchasining keng va tor ma'nolari, mohiyati. Barqaror taraqqiyot va yuksalish jarayonlarining asosiy tamoyillari: qarama-qarshiliklar birligi tamoyili va shaxs ma'naviyatidagi barqarorlik tamoyilining ahamiyati. Barqaror taraqqiyot va yuksalishga o'tish jarayonidagi ziddiyatlarni bartaraf etish strategiyasi. Barqaror taraqqiyot va yuksalish o'quv kursini Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishdagi ahamiyati</p> <p><b>2- Mavzu. Barqarorlik va beqarorlik dialektikasi (2 soat)</b></p> <p>Barqaror va beqaror taraqqiyot modellarining o'zaro aloqasi va farqi. Beqarorlik alomatlarini va ularni bartaraf etish yo'llari. Barqaror taraqqiyotning ijtimoiy madaniy tizimlari. Barqaror taraqqiyot va yuksalish modelining nazariy asoslari. Taraqqiyot, yuksalish, barqaror taraqqiyot va xavfsizlikning mutanosibligi. Iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashning ijtimoiy ahamiyati. Qo'shni davlatlar bilan hamkorlik va chegara hududlaridagi barqarorlik xavfsizlik kafolati. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyotning asosiy tamoyillari. Barqaror taraqqiyot va yuksalish innovasion jarayon sifatida.</p>			

### **3-mavzu. Yuksalish va barqaror taraqqiyotga o'tish jarayonlari (2 soat)**

Yuksalish jarayonlarining konseptual tahlili. Davlat boshqaruvi tizimidagi islohotlar va ularning ahamiyati. O'tish davri. Barqaror taraqqiyotga o'tish modellari. Tranzit va transformasiya barqaror taraqqiyotga o'tishning ko'rinishlari sifatida. O'zbekistonda transformasiya jarayonlarining kechishi. Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini takomillashtirishning zarurati. Dunyo hamjamiyati O'zbekistondagi yuksalish jarayonlari haqida. Barqaror taraqqiyotga o'tish jarayonida O'zbekistondagi muammolar va ularni bartaraf etish mexanizmlari.

### **4-mavzu. Barqaror taraqqiyot strategiyasi (2 soat)**

Yangi tipdagi sivilizatsiyani yaratish yo'lidagi izlanishlar. Harakatlar strategiyasining mazmuni va uning ahamiyati. Davlat boshqaruvi tizimidagi yangilanishning ahamiyati. Barqaror taraqqiyotga o'tish davrida davlatning funksiyalari. BMTning 72 sessiyasidagi barqaror taraqqiyotga bag'ishlangan Sammit natijalari. Dunyo hamjamiyati va O'zbekiston barqaror taraqqiyotni ta'minlash yo'lida. O'zbekiston Prezidenti murojaatnomasining ijtimoiy siyosiy ahamiyati Ijtimoiy madaniy tizimlarda barqarorlik darajasi ko'rsatkichlarini aniqlash bo'yicha izlanishlar.

### **5-mavzu. Barqaror taraqqiyot strategiyasining iqtisodiy mexanizmlari (2 soat)**

Sivilizasiyaning barqaror iqtisodiy asoslari. Global iqtisodiyotni rivojlantirish - barqaror taraqqiyot yo'li. Xorij investisiyalari O'zbekiston iqtisodiy barqaror taraqqiyotining kafolati. O'zbekistonda kapital erkinligi: nazariyadan amaliyotga o'tishning ahamiyati. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yangi imkoniyatlari. Qishloq xo'jaligi tizimidagi islohotlar iqtisodiy yuksalish va barqaror rivojlanish omili. Imtiyozli kreditlar amaliyoti. Iqtisodiy o'sish va bandlik. Bandlikning yangi shakllari. Yangi kasblarning yo'nalishlari.

### **6- mavzu. Farovonlik barqaror taraqqiyot va yuksalish mezoni (2 soat)**

Farovonlik tushunchasi va uning shaxs kamolotiga ta'siri. Farovonlik omillari. Iqtisodiy tengsizlik darajalari, uning sabablari va bartaraf etish bo'yicha O'zbekiston amaliyoti. Boy, o'rta hol, kambag'al aholining turmush tarzidagi farqlar. O'zbekistonda "Xalq boy bo'lsa davlat boy bo'ladi" ezgu g'oyasining ijtimoiy ahamiyati. O'zbekistonda kambag'allik bartaraf etish yo'lida olib borilayotgan islohatlar.

### **7-mavzu. Barqaror taraqqiyot va yuksalishning ijtimoiy ekologik omillari (2 soat)**

Dunyo taraqqiyotining ijtimoiy ekologik mo'ljallari. Dunyo biosferasining genezisi va hozirgi davr. Ijtimoiy ekologik muammolar tizimi. XXI asrdagi global ijtimoiy ekologik muammolar: energetika, tabiiy resurslar. O'zbekistonda ekologik muammolarni bartaraf etish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar.

### **8-mavzu. Ta'lim tizimi islohotlarining tafakkur yangilanishidagi ahamiyati (2 soat)**

Ta'lim va tarbiya tizimini islohotlarining tarixiy ahamiyati. XX-XXI asrda dunyo va O'zbekistonda ta'lim va tarbiya sohasida amalga oshirilgan islohotlar dinamikasi. G'arb va Sharq davlatlari ta'lim tizimi islohotlaridagi o'zaro aloqadorlik va farqlar. Ta'lim sohasidagi investisiyalar. Mustaqil O'zbekistondagi ta'lim sohasidagi islohotlarning ijobiy va salbiy jihatlari, asosiy yo'nalishlari. Barqaror taraqqiyot mo'ljallari yo'lidagi islohotlar: Maktabgacha ta'lim tizimidagi islohotlar yuksalish yo'lidagi dastlabki qadam. "El-yurt umidi" jamg'armasining maqsadi va vazifalari. Ta'lim sohasidagi islohotlarda xorij tajribaning o'rnini. Ta'lim tizimi dinamikasi. O'zbekistonda prezident maktablarini tashkil etilishining zarurati va maqsadi.

### **9-mavzu. Adabiyot va san'at sohasidagi yuksalish ko'rsatkichlari (2 soat)**

Adabiyot va san'at ma'naviy hayot yuksalishi omili. Badiiy adabiyot janrining rivojlanish tarixi. O'zbek mumtoz adabiyotining hozirgi davrdagi ahamiyati. Badiiy asarlar ma'nosini anglashning o'zlikni anglashdagi ahamiyati. Jahon adabiyotining dunyo sivilizasiyasidagi o'rnini. O'zbek adabiyotida tanqidiy realizm. Hozirgi davrda O'zbekistonda kitob o'qishni takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar. Yozuvchilar xiyobonini

tashkil etishning ijtimoiy ma'naviy ahamiyati. Adabiyot, teatr va kino O'zbekistondagi islohotlar jarayonining asosiy targ'ibotchilari. San'at tushunchasining ma'nosi va uning janrlari. O'zbekistonda teatr va kino san'ati rivojlanishining tarixi va asosiy yo'nalishlari. Mumtoz teatr va kino mahsullari. Hozirgi davrda teatr va kino janridagi yutuq va kamchiliklar. O'zbek kinosi jahon kinosi maydonida. Qo'shiq va raqs san'atining rivojlanish tarixi va uning milliy g'oya va qadriyatlarni asrashdagi roli. O'zbekiston teleradiokompaniyasi barqaror taraqqiyot va yuksalish jarayonlarining targ'ibotchisi.

**10-mavzu. Urbanizatsiya va demografiya muammolarning bartaraf etilishining barqarorlik va yuksalishga ta'siri (2 soat)**

Urbanizatsiya tushunchasi va uning ijtimoiy tarixiy ahamiyati. Hozirgi davrda dunyo mamlakatlarida urbanizatsiya jarayonlari. Urbanizatsiya aholining madaniylashuvi omili. Qishloq infrastrukturasi rivojlantirishning ahamiyati va zarurati. Qishloq taraqqiyoti dasturining ijtimoiy siyosiy ahamiyati. Shahar tipidagi qishloqlar yaratish amaliyoti. Dunyo va O'zbekistonda demografiya muammosi. Hozirgi davrda demografiya siyosati.

**11 - mavzu. Inson salohiyati barqarorlik va yuksalishning bosh omili (2 soat)**

Inson salohiyati tushunchasining mohiyati va uning asosiy ko'rsatkichlari. Inson mehnatiga munosabatning ko'rinishlari. Inson salohiyatini baholash mezonlari. Yoshlarning intellektual salohiyatini namoyon etishga yo'nalgan beshta tashabbusning mazmuni va uning yo'nalishlari. O'zbekistonda gender tengligini ta'minlashda inson salohiyatining o'рни. Inson salohiyatining qadrlanishi va qadrsizlanishi.

**12-mavzu. Samarali boshqaruv va inson taraqqiyoti kontekstida institutsional jihatlar (2 soat)**

Inson salohiyatini oshirishda davlatning o'рни. Nomarkazlashuv va inson taraqqiyoti. Inson taraqqiyotining maqsadlariga erishishda fuqarolik jamiyatining ta'siri. Inson taraqqiyoti manfaatlarida samarali davlat boshqaruvi va O'zbekiston Respublikasidagi ma'muriy islohotlarning asosiy yo'nalishlari.

**III. AMALIY MASHG'ULOTLAR BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR.**

Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha quyidagi mavzular tavsiya qilinadi.

**1-mavzu. Barqaror taraqqiyot va yuksalish jarayonlari o'quv kursini o'qitishning ahamiyati (2 soat)**

Reja:

1. Barqaror taraqqiyot va yuksalish jarayonlari o'quv kursining mazmuni va tadqiqot predmeti. Fanning maqsad va vazifalari.
2. Barqaror taraqqiyot va yuksalish jarayonlari o'quv kursining nazariy masalalari va mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar bilan chambarchas bog'liqligi.
3. Barqaror taraqqiyot va yuksalish jarayonlari o'quv kursining ijtimoiy fanlar tizimidagi o'рни.
4. Barqaror taraqqiyot va yuksalish jarayonlari o'quv kursini o'qitishning nazariy va amaliy ahamiyati.

**2-mavzu. Barqarorlik va beqarorlik dialektikasi (2 soat)**

Reja:

1. Barqaror va beqaror taraqqiyot tushunchasi, mohiyati.
2. Falsafa tarixida barqarorlik va beqarorlik haqidagi qarashlar
3. Hozirgi zamon fanida barqarorlik va beqarorlik haqidagi konsepsiyalar.
4. Taraqqiyot, yuksalish, barqaror taraqqiyot va xavfsizlikning mutanosibligi.

**3-mavzu. Yuksalish va barqaror taraqqiyotga o'tish jarayonlari (2 soat)**

Reja:

1. Yuksalish jarayonlarining konseptual tahlili

2. Davlat boshqaruvi tizimidagi islohotlar va ularning ahamiyati.
3. Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini takomillashtirishning zarurati.
4. Barqaror taraqqiyotga o'tish jarayonida O'zbekistondagi muammolar va ularni bartaraf etish mexanizmlari.

#### **4-mavzu. Barqaror taraqqiyot strategiyasi (2 soat)**

Reja:

1. Yangi tipdagi sivilizasiyani yaratish yo'lidagi izlanishlar.
2. Harakatlar strategiyasining mazmuni va uning ahamiyati.
3. Davlat boshqaruvi tizimidagi yangilanishning ahamiyati.
4. BMTning 72 sessiyasidagi barqaror taraqqiyotga bag'ishlangan Sammit natijalari.
5. Dunyo hamjamiyati va O'zbekiston barqaror taraqqiyotni ta'minlash yo'lida.

#### **5-mavzu. Barqaror taraqqiyot strategiyasining iqtisodiy mexanizmlari (2 soat)**

Reja:

1. Sivilizasiyaning barqaror iqtisodiy asoslari.
2. Global iqtisodiyotni rivojlantirish – barqaror taraqqiyot yo'li.
3. Xorij investitsiyalari O'zbekiston iqtisodiy barqaror taraqqiyotining kafolati.
4. Qishloq xo'jaligi tizimidagi islohotlar iqtisodiy yuksalish va barqaror rivojlanish omili.

#### **6-mavzu. Farovonlik barqaror taraqqiyot va yuksalish mezoni (2 soat)**

Reja:

1. Farovonlik tushunchasi va uning shaxs kamolotiga ta'siri.
2. Farovonlik omillari.
3. Iqtisodiy tengsizlik darajalari, uning sabablari va bartaraf etish bo'yicha O'zbekiston amaliyoti.
4. O'zbekistonda "Xalq boy bo'lsa, davlat boy bo'ladi" ezgu g'oyasining ijtimoiy ahamiyati.
5. O'zbekistonda kambag'allik bartaraf etish yo'lida olib borilayotgan islohatlar

#### **7- mavzu. Barqaror taraqqiyot va yuksalishning ijtimoiy-ekologik omillari (2 soat)**

Reja:

1. Dunyo taraqqiyotining ijtimoiy ekologik mo'ljallari. Dunyo biosferasining genezisi va hozirgi davr.
3. Ijtimoiy ekologik muammolar tizimi. XXI asrdagi global ijtimoiy ekologik muammolarning barqaror taraqqiyotga ta'siri.
4. Ijtimoiy ekologik muammolarning oldini olish borasida olib borilayotgan tadqiqotlar.
5. O'zbekistonda ekologik muammolarni bartaraf etish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar.

#### **8-mavzu. Ta'lim tizimi islohotlarining tafakkur yangilanishidagi ahamiyati (2 soat)**

Reja:

1. Ta'lim va tarbiya tizimini islohotlarining tarixiy ahamiyati.
2. XX-XXI asrda dunyo va O'zbekistonda ta'lim va tarbiya sohasida amalga oshirilgan islohotlar dinamikasi.
3. G'arb va Sharq davlatlari ta'lim tizimi islohotlaridagi o'zaro aloqadorlik va farqlar.
4. Ta'lim sohasidagi investitsiyalar. Mustaqil O'zbekistondagi ta'lim sohasidagi islohotlarning ijobiy va salbiy jihatlari, asosiy yo'nalishlari.

#### **9- mavzu. Adabiyot va san'at sohasidagi yuksalish ko'rsatkichlari (2 soat)**

Reja:

1. Adabiyot va san'at ma'naviy hayot yuksalishi omili.
2. Adabiyot va san'at asarlari ma'nosini anglashning o'zlikni anglashdagi ahamiyati.
3. Adabiyot va san'at rivojlanish tarixi va uning milliy g'oya va qadriyatlarni asrashdagi roli.
4. Adabiyot va san'at sohasidagi zamonaviy yo'nalish va uslublar.

**10 - mavzu. Mustahkam oila instituti barqaror taraqqiyotning kafolati (2 soat)**

Reja:

1. Oila va nikoh tushunchasining ijtimoiy madaniy ahamiyati. Oilaning tarixiy shakllari.
2. Dunyo davlatlarida oilaviy munosabatlar. Oila barqarorligi jamiyat barqarorligi omili.
3. Oilaviy munosabatlarning huquqiy jihatlarini takomillashtirish zarurati.
4. Zamonaviy oila muammolari.

**11-mavzu. Urbanizatsiya va demografiya muammolarning bartaraf etilishining barqarorlik va yuksalishga ta'siri (2 soat)**

Reja:

1. Urbanizatsiya va demografiya tushunchasi va uning ijtimoiy tarixiy ahamiyati.
2. Hozirgi davrda dunyo mamlakatlarida urbanizatsiya va demografiya jarayonlari.
3. Urbanizatsiya aholining madaniylashuvi omili. Demografiya muammosiga oid nazariyalar.
4. Hozirgi davrda demografiya siyosati.
5. Zamonaviy shaharlarning rivojlanishi: barkamollik va madaniyat.

**12-mavzu. Inson salohiyati barqarorlik va yuksalishning bosh omili (2 soat)**

Reja

1. Inson salohiyati tushunchasining mohiyati va uning asosiy ko'rsatkichlari.
2. Inson mehnatiga munosabatning ko'rinishlari.
3. Inson salohiyatini baholash mezonlari.

**13-mavzu. Samarali boshqaruv va inson taraqqiyoti kontekstida institutsional jihatlar (2 soat)**

Reja.

1. Inson salohiyatini oshirishda davlatning o'rni. Nomarkazlashuv va inson taraqqiyoti.
2. Inson taraqqiyotining maqsadlariga erishishda fuqarolik jamiyatining ta'siri.
3. Inson taraqqiyoti manfaatlarida samarali davlat boshqaruvi
4. O'zbekiston Respublikasidagi samarali davlat boshqaruvining asosiy yo'nalishlari.

**MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR**

**Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta ta'lim vazirligining 2009 yil 22 may 286-sonli «Talaba mustaqil ishini tashkil etish» to'g'risidagi buyrug'iga ko'ra oliy ta'lim muassasalari talabalarida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish, kyerakli ma'lumotlarni izlab topish va tahlil qilishga o'rgatish hamda shu asosda mas'uliyatli yechimlar qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, shuningdek, barcha bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari davlat ta'lim standartlarida ko'zda tutilgan talaba mustaqil ishi uchun byelgilangan o'quv yuklamani to'liq bajarish va ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlash vazifasi amalga oshiriladi.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda ushbu fanning xususiyatlarini, shuningdek, har bir talabaning akadyemik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- byerilgan mavzu bo'yicha axborot (ryefyerat) tayyorlash;
- syeminar mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;
- kurs ishi (loyihasi)ni bajarish;
- malakaviy bitiruv ishi va magistrlik dissyertatsiyasini tayyorlash;

	<p>nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash, dars ishlanmalarini tayyorlash; amaliyotdagi mavjud muammolarning yechimini topish; ilmiy maqola, anjumanlarga ma'ruza tyezislarini tayyorlash va x.k.</p> <p>Mustaqil ta'limga mo'ljallangan topshiriqlar (mavzular), ma'ruzalar mavzulari, syeminar mashg'ulotlari mavzulari va kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlarni bajarishga qaratilishi tavsiya etiladi.</p> <p style="text-align: center;"><b>Barqaror taraqqiyot va yuksalish jarayonlari fanidan MUSTAQIL ISHLARINING MAVZULARI</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Barqaror taraqqiyot va yuksalish jarayonlari o'quv kursini o'qitishning ahamiyati.</li> <li>2. Barqaror taraqqiyot tushunchasining keng va tor ma'nolari, mohiyati</li> <li>3. Barqarorlik va beqarorlik dialektikasi</li> <li>4. Barqaror taraqqiyot va yuksalish modelining nazariy asoslari.</li> <li>5. Yuksalish va barqaror taraqqiyotga o'tish jarayonlari</li> <li>6. Barqaror taraqqiyotga o'tish modellari.</li> <li>7. Dunyo hamjamiyati va O'zbekiston barqaror taraqqiyotni ta'minlash yo'lida.</li> <li>8. Sivilisasiyaning barqaror iqtisodiy asoslari.</li> <li>9. Global iqtisodiyotni rivojlantirish - barqaror taraqqiyot yo'li.</li> <li>10. Xorij investisiyalari O'zbekiston iqtisodiy barqaror taraqqiyotining kafolati.</li> <li>11. Farovonlik tushunchasi va uning shaxs kamolotiga ta'siri.</li> <li>12. Farovonlik omillari va shart-sharoitlari.</li> <li>13. Iqtisodiy tengsizlik darajalari, uning sabablari va bartaraf etish bo'yicha O'zbekiston amaliyoti.</li> <li>14. O'zbekistonda "Xalq boy bo'lsa davlat boy bo'ladi" ezgu g'oyasining ijtimoiy ahamiyati.</li> <li>15. O'zbekistonda kambag'allik bartaraf etish yo'lida olib borilayotgan islohatlar.</li> <li>16. Dunyo taraqqiyotining ijtimoiy ekologik mo'ljallari.</li> <li>17. XXI asrdagi global ijtimoiy ekologik muammolar: energetika, tabiiy resurslar.</li> <li>18. O'zbekistonda ekologik muammolarni bartaraf etish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar.</li> <li>19. Barqaror taraqqiyot strategiyasining iqtisodiy mexanizmlari</li> <li>20. Farovonlik barqaror taraqqiyot va yuksalish mezoni</li> <li>21. Barqaror taraqqiyot va yuksalishning ijtimoiy ekologik omillari</li> <li>22. Ta'lim tizimi islohotlarining tafakkur yangilanishidagi ahamiyati</li> <li>23. Sog'liq va barqaror taraqqiyot mutanosibliqi</li> <li>24. Sport salomatlik kafolati</li> <li>25. Adabiyot va san'at sohasidagi yuksalish ko'rsatkichlari</li> <li>26. Mustahkam oila instituti barqaror taraqqiyotning kafolati</li> <li>27. Urbanizatsiya va demografiya muammolarning bartaraf etilishining barqarorlik va yuksalishga ta'siri</li> <li>28. Inson salohiyati barqarorlik va yuksalishning bosh omili</li> <li>29. Samarali boshqaruv va inson taraqqiyoti kontekstida institutsional jihatlar</li> <li>30. Inson taraqqiyoti manfaatlarida samarali davlat boshqaruvi</li> </ol>
3.	<p style="text-align: center;"><b>V. Ta'lim natijalari.</b></p> <p><b>Fan bo'yicha talabalarning bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar</b></p> <p>O'quv kursini o'zlashtirish natijasida magistrda:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Barqaror taraqqiyot va yuksalish jarayonlari haqida tushuncha shakllanadi, ijtimoiy taraqqiyotning mazmun va mohiyatini anglaydi;</li> <li>- Barqaror taraqqiyot va yuksalish jarayonlarining hozirgi zamon jamiyatlari istiqboliga ta'sirini falsafiy tahlil qila oladi;</li> <li>- Barqaror taraqqiyot va yuksalish jarayonlari o'rtasidagi aloqadorlik va qonuniy bog'lanish</li> </ul>

	<p>o'zlashtiradi;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Barqaror taraqqiyot va yuksalish jarayonlarining ijtimoiy ong shakllari bilan bog'liqligini anglaydi;</li> <li>- shaxs ijtimoiy dunyoqarashini shakllanishida inson taraqqiyotining o'rni haqida asosli ma'lumotlarga ega bo'ladi.</li> </ul>
4	<p style="text-align: center;"><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari.</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• maruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol - javoblar);</li> <li>• guruxlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlar qilish;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash</li> </ul>
5.	<p style="text-align: center;"><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy nazorat, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p> <p><b>Joriy nazorat.</b> Joriy nazorat semestr davomida seminar mashg'ulotlariga ajratilgan soatlar (juftlik) dan kelib chiqib umumiy 30 ball bilan baholanadi.</p> <p>Jami seminar mashg'ulotlari bo'yicha o'zlashtirish natijalari 100 ballik tizimda 30 ball bilan baholanadi.</p> <p><b>Oraliq nazoratlar.</b> Oraliq nazoratlar semestr davomida ma'ruza mashg'ulotlari o'quv soatidan kelib chiqqan holda 1 marta o'tkaziladi. Oraliq nazorat 100 ballik tizimda 20 ball bilan baholanadi. Oraliq nazorat ishi tarkibida mustaqil ta'lim topshirig'i kiradi.</p> <p>Oraliq va joriy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalarga yakuniy nazorat topshirishga ruxsat beriladi.</p> <p style="text-align: center;"><b>Yakuniy nazorat</b></p> <p>Yakuniy nazorat yozma yoki test shaklida o'tkaziladi. Talabaning yakuniy nazoratdagi o'zlashtirishi 100 ballik tizimda 50 ball bilan baholanadi va yakuniy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalar fanni o'zlashtirgan hisoblanadi.</p>
6.	<p style="text-align: center;"><b>ADABIYOTLAR:</b></p> <p style="text-align: center;"><b>I. Asosiy adabiyotlar</b></p> <p>8.Barqaror taraqqiyot va uning indikatorlari. Monografiya /A.N.Nigmatov va boshq. – Toshkent, Spectrum Media group. 2015. 120 b.</p> <p>9.Mamashokirov S., Usmonov E. Barqaror taraqqiyotning ekologik xavfsizlik masalalari. –T., Fan, 2009. 246 b.</p> <p>10.Barqaror kelajak sari. O'quv-metodik qo'llanma. –T., Chinor Enk, 2013. 176 b.</p> <p>11.Shodimetov Yu. Ijtimoiy ekologiyaga kirish. –T., 1994.</p> <p>12.Karimov I. Noosfera: geosiyosat va mafkura. T., 2001.</p> <p>13.Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. . T., O'zbekiston, 1997.</p> <p>14.Итоги Всемирного саммита по устойчивому развитию // Ж. «Экология и устойчивое развитие». №10 2002. – С. 2–9.</p> <p>15.Madaeva Sh. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur. – T., Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2007. 128 b.</p> <p>16.«Indicators of Sustainable Development: Guidelines and Methodologies» (Nyu-York, 2001)</p> <p>17.Encyclopedia of Life Support Systems (EOLSS), 2002, Oxford, UK, www.eolss.net</p> <p>18.Environmental indicators South Asia, UNEP, 2004. 63. Expanding the Measure of Wealth: Indicators of Environmentally Sustainable Development. Environmentally Sustainable Development Studies and Monographs Series №. World Bank: Washington, DC. 1997.</p>



	<p style="text-align: center;"><b>Qo`shimcha adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mirziyoev Sh.M. Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2017-2020 yy.</li> <li>2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T-2016.</li> <li>3. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.</li> <li>5. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-tom. T.”O‘zbekiston”, 2019.</li> <li>6. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonlik garovi. -Toshkent: O‘zbekiston, 2017 -53 bet.</li> <li>7. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. -Toshkent: O‘zbekiston, 2021.</li> <li>8. The European environment: glimpses into uncertain future. European Environment Agency, Copenhagen, 2007. <a href="http://mfa.uz/rus/mej_sotr/vneshnyaya_politika/vodnie_resursi/">http://mfa.uz/rus/mej_sotr/vneshnyaya_politika/vodnie_resursi/</a></li> <li>9. Human Development Report 1990. UNDP, New York: Oxford University Press, 1990.</li> <li>10. Human Development Report 2003. UNDP, New York: Oxford University Press, 2003.</li> <li>11. Indicators of Sustainable Development, UN Department for Policy Coordination and Sustainable Development, December, 1994</li> <li>12. Indicators of Sustainable Development, YHO, 2001</li> <li>13. Ochilova B. Falsafiy bilimlar shakllanigi va rivojlanishining tarixiy bosqichlari. Jizzax, 2007.</li> <li>14. Ramatov J. Hayotga falsafiy nigoh. T.: “ITA-press”, 2017, 380 bet.</li> <li>15. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri.–T.:Yangi asr avlodi, 2016.-318</li> <li>16. Yoqubova M. Fan axborotlashuvining jamiyat rivojidadagi o‘rni. - T.: “Star - Poligraf”, 2010. -180 b.</li> <li>17. Qahhorova Sh. Global ma’naviyat – globallashuvning g‘oyaviy asosi. -Toshkent: Tafakkur, 2009. -670 b.</li> <li>18. Umarov B. Tamaddun: xatarli alomatlar. T, 2010.</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>Elektron ta`lim resurslari</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. <a href="http://www.lex.uz">www.lex.uz</a></li> <li>2. <a href="http://www.ziyonet.uz">www.ziyonet.uz</a></li> <li>3. <a href="http://www.un.org/esa/sustdev/">www.un.org/esa/sustdev/</a> – Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) ning Barqaror rivojlanish komissiyasi sayti.</li> <li>4. <a href="http://www.unesco.org">www.unesco.org</a> – BMTning ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti sayti.</li> <li>5. <a href="http://www.desd.org">www.desd.org</a> – BMTning «Barqaror rivojlanish ta’limi o‘n yilligi» sayti.</li> <li>6. <a href="http://www.unep.org">www.unep.org</a> – BMTning Atrof-muhit bo‘yicha dasturi sayti.</li> <li>7. <a href="http://www.un.org/esa/sustdev/">www.un.org/esa/sustdev/</a> – Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning Barqaror rivojlanish komissiyasi sayti.</li> </ol>
<b>7.</b>	<b>Jizzax davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan</b>
<b>8.</b>	<b>Fan/modul uchun mas`ul: N.Tangirov</b>
<b>9.</b>	<p><b>Taqrizchilar:</b>  <b>G.G‘.G‘affarova</b> - ChDPU professori, f.f.d.  <b>S.Kistaubayev</b> – JDPU dotsenti, falsafa doktori (PhD)</p>





